

IJTIMOIIY ISH KASBIY FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**Nasriddinov Abdulvahob Abdulboqi o'gli***Farg'ona davlat universiteti magistranti***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 10.12.2025**Revised: 11.12.2025**Accepted: 12.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***ijtimoiy ish, kasbiy faoliyat, nazariy asos, huquqiy mexanizm, ijtimoiy himoya, professionalizatsiya.*

Mazkur maqolada ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy ishning shakllanishi, ilmiy konsepsiyalari, nazariy yondashuvlari hamda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ishni tartibga soluvchi qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish kasbining professionalizatsiyasi, davlat siyosatida tutgan o'rni hamda xalqaro tajribalar o'rganiladi. Natijalar asosida ijtimoiy ishni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolar tobora murakkablashib, ularning ko'lamini kengayib bormoqda. Bu jarayon iqtisodiy, demografik, ekologik, siyosiy va madaniy omillar bilan bevosita bog'liqdir. Global o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy hayotning dinamikasi natijasida insonlarning ehtiyojlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Shunday sharoitda ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining ahamiyati ortib, u nafaqat shaxs va oilaga ko'mak beruvchi tizim, balki jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolat va tenglikni qaror toptirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Ijtimoiy ishning obyekti — ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, jumladan, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yetimlar, yolg'iz keksalar va kam ta'minlangan oilalardir.

Predmeti esa — ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayot sifatini yaxshilash hamda ularning jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlar tizimidir .

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining huquqiy asoslari izchil shakllanib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda qabul qilingan "Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda 2020-yilda kuchga kirgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi Qonun mazkur sohaga huquqiy maqom berib, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonini tartibga soldi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijtimoiy adolat, inson huquqlarini himoya qilish va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash sohasida muhim huquqiy asos yaratdi [3].

Ijtimoiy ishning nazariy asoslarini belgilovchi yondashuvlardan biri — ekologik tizim yondashuvi bo'lib, u shaxsni o'zining yashash muhiti bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishni taklif etadi. Bu yondashuv inson hayotiga ta'sir etuvchi mikro (oilasi, maktab, mehnat jamoasi) va makro (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) omillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil etishga imkon beradi [4].

Shuningdek, kuchli tomonlarga asoslangan (strengths-based) yondashuv va empowerment konsepsiyasi zamonaviy ijtimoiy ish nazariyasining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar insonni passiv yordam oluvchi emas, balki o'z hayotini yaxshilashda faol ishtirokchi sifatida ko'radi. Shaxsning ichki resurslari, salohiyati va ijtimoiy faolligini kuchaytirish orqali jamiyatdagi integratsion jarayonlar samaradorligini oshiradi [5].

Zamonaviy ijtimoiy ish tizimi aynan shu yondashuvlar, huquqiy asoslar va ilmiy-nazariy g'oyalar uyg'unligida shakllanib, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash hamda insonparvarlik tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Shu bois, ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining mohiyatini, nazariy va metodologik asoslarini chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Ekologik tizim yondashuvi. U. Bronfenbrenner tomonidan ishlab chiqilgan ekologik tizim modeli shaxsning rivojlanishini uning makro, mezo va mikro muhitidagi o'zaro aloqalar orqali tushuntiradi. Ijtimoiy ish amaliyotida bu yondashuv shaxsni uning oilasi, mahallasi, makroiqtisodiy va siyosiy muhit bilan bog'liq holda ko'rishga imkon beradi. Shu tarzda, yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashda kontekstual omillar, resurslar va muhitning ta'siri chuqurroq tahlil qilinadi [6].

Strengths-based yondashuvi. Saleebey va Rapp & Goscha ishlarida ko'rsatishicha, shaxsning kuchli tomonlari va mavjud resurslariga tayanish ijtimoiy ishning samaradorligini oshiradi[7]. Bu yondashuv yordamga muhtoj shaxsning salohiyatini faollashtiradi va qaror qabul qilish jarayonida uning o'zini ishtirok etishini ta'minlaydi.

Empowerment (qudratlantirish) yondashuvi. Empowerment modeli shaxsni mustaqil qaror qabul qilish, hayotini boshqarish va ijtimoiy integratsiyalashuv jarayoniga jalb qiladi⁵. Xalqaro va milliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, nogironlar, yetimlar, yolg'iz qariyalar kabi zaif guruhlar bilan ishlashda empowerment yondashuvi samarali hisoblanadi.

Milliy kontekst va mahalla instituti. Mahalla institutlari ijtimoiy ishchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda, ularni amaliy ish jarayonlariga jalb qilishda va xizmatlarni tizimli ravishda muvofiqlashtirishda markaziy o'rin tutadi. Bu jarayonda mahalla instituti bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi. Avvalo, mahalla xodimlari va ijtimoiy ishchilar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatiladi, bu esa xizmatlarning manzilga yetkazilishi va qamrovini oshirish imkonini beradi[8]. Misol uchun, mahalla mutaxassislari o'z hududidagi aholining ijtimoiy holatini kuzatib boradi, muammoli oilalarni aniqlaydi va ularni kerakli ijtimoiy xizmatlar bilan bog'laydi. Shu tariqa, yordamga muhtoj shaxslar va oilalarning ehtiyojlari individual va kontekstual jihatdan hisobga olinadi.

Huquqiy manbalar tahlili. O'zbekiston Respublikasining Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi Qonuni (2018) va Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonuni (2020) ijtimoiy ish kasbining huquqiy bazasini belgilaydi[9]. Bu qonunlar xizmat ko'rsatishning standartlarini belgilab, yordamga muhtoj shaxslarning huquqlarini himoya qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro tadqiqotlar, masalan UNICEF va ILO (2020) hisobotlari ijtimoiy ishchilarning malaka darajasi, xizmat ko'rsatish standartlari va xalqaro tajribaga moslashuv masalalarini yoritadi. Shu bilan birga, o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy ishning milliy jihatlari, mahalla darajasida monitoring va amaliyot samaradorligini o'rganadi.

Maqolaning metodologik bazasi bir nechta metodlar asosida shakllangan:

Normativ-huquqiy tahlil. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy himoya qonunlari, prezident farmonlari, davlat dasturlari va xalqaro hujjatlar tahlil qilindi. Bu metod ijtimoiy ish kasbining huquqiy asoslarini aniqlashga yordam berdi.

Sistematik adabiyot tahlili. 2015–2025 yillar oralig'idagi ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro hisobotlar o'rganildi. Tadqiqot mazmunan nazariy va amaliy jihatdan ijtimoiy ishning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil. Milliy va xalqaro tajriba solishtirildi. Bu metod O'zbekistonning ijtimoiy ish tizimidagi afzallik va kamchiliklarni aniqlashga imkon berdi.

Sotsiologik-amaliy tahlil. Mahalla darajasidagi xizmatlar, kadr tayyorgarligi va ijtimoiy ishchilarning malaka darajasi o'rganildi. Shu metod orqali amaliyotdagi samaradorlik va mavjud muammolar tahlil qilindi.

Analitik va statistik tahlil. Milliy va xalqaro manbalardan olingan ma'lumotlar asosida ijtimoiy xizmatlar samaradorligi va kadr resurslari statistik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Natija va muhokama

Maqola yozish jarayonida to'plangan ma'lumot va statistik ko'rsatkichlar ijtimoiy ish kasbiy faoliyati bilan bog'liq bir qator muhim xulosalarni berdi:

Xizmat ko'rsatish samaradorligi va ehtiyojlarni qamrab olish UNICEFning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ijtimoiy ishchilarning jami soni taxminan 4 600 nafarni tashkil qiladi va aholi har 100 000 nafariga to'g'ri keladigan ijtimoiy ishchilar soni atigi 13 nafar bo'lib, bu ko'rsatkich bolalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ayniqsa past har 100 000 bolaga atigi «3 nafar» ijtimoiy ishchi to'g'ri kelmoqda [9]

Bu holat ijtimoiy xizmatlar tizimida kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish hamda har bir yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislarni yetarli darajada ta'minlash zarurligini yaqqol namoyon etadi. Chunki xizmatlarning sifati va samaradorligi, avvalo, tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, malakasi va amaliy ko'nikmalariga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, ijtimoiy sohada inson resurslarini rivojlantirish, ularni muntazam qayta tayyorlash va malakasini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yil holatiga nisbatan O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining qamrovi aholining qariyb 55 foizini tashkil etgan. Bu raqam, bir tomondan, tizimning mavjud imkoniyatlarini ko'rsatsa, boshqa tomondan, ijtimoiy xizmatlarning to'liq qamrovini ta'minlash uchun hali ham katta salohiyat mavjudligini anglatadi [10]. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish, hududiy markazlar faoliyatini

kuchaytirish va soha mutaxassislarini tayyorlash masalasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajribalar va tashqi manbalarda ta'kidlanishicha, kamsitilgan ijtimoiy guruhlar bilan ishlashda mahalla va jamoatchilik asosida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish ijtimoiy qo'llab-quvvatlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [11]. Bunday yondashuv mahalla muhitining insonparvarlik va o'zaro yordam tamoyillariga tayanadi, natijada aholining ishonchi ortadi, ijtimoiy xizmatlar esa aholining real ehtiyojlariga yaqinlashadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan zaif oilalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Vazirlar Mahkamasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda qashshoqlik darajasi 14 foizdan 11 foizgacha kamaygan, bu esa amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalaridan dalolat beradi [12].

Bundan tashqari, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish maqsadida 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (National Agency for Social Protection — NASP) tashkil etildi. Mazkur agentlik faoliyati doirasida ijtimoiy xizmatlar tizimi bosqichma-bosqich raqamli boshqaruv mexanizmlariga o'tkazilmoqda. Natijada, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlari kengaydi va ularning mustaqil hayotga qaytish darajasi oshdi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yakuniga kelib, mamlakat bo'yicha 92 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxs ish bilan ta'minlangan, bu esa ijtimoiy xizmatlarning amaliy natijadorligini ko'rsatib turibdi [13].

Mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishda "hamkorlikka asoslangan xizmat modeli" muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv mahalla fuqarolar yig'ini, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari hamda boshqa soha mutaxassislari o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Mazkur integratsion model ijtimoiy muammolarning ildiziga chuqur kirib borish, aholining ehtiyojini aniq aniqlash va manzilli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimini hududiy darajada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024 yilda amalga oshirilgan yangi tashabbus doirasida "hududiy ijtimoiy xizmat markazlari" (TSSC — Territorial Social Service Centers)ni tashkil etish loyihasi yo'lga qo'yildi. Ushbu dastur asosida

mamlakatning 50 dan ortiq hududida zamonaviy ijtimoiy xizmat markazlarini ochish rejalashtirilgan bo'lib, ular orqali 50 mingdan ziyod ijtimoiy jihatdan zaif toifa vakillariga manzilli va sifatli xizmatlar ko'rsatish ko'zda tutilgan [14].

Mazkur model amalda ijtimoiy ishning mahalla darajasida desentralizatsiya va integratsiya tamoyillari asosida tashkil etilayotganidan dalolat beradi. Chunki bunday yondashuv har bir mahallaning o'ziga xos ijtimoiy muammolarini joyida hal etish, aholining ishonchini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Shu tariqa, hamkorlikka asoslangan xizmat modeli mahalliy ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash hamda aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Natijalarni birlashtirib aytganda: ijtimoiy ish kasbi O'zbekistonda aholi ehtiyojlarini qondirishda sezilarli ulushga ega bo'lgan, biroq xizmat ko'rsatishning kengligi, kadr salohiyati, monitoring va resurs ta'minoti kabi jihatlar hali ham takomillashtirilishga muhtoj ekani ko'rsatadi.

Xulosa

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va yordamga muhtoj shaxslarning hayot sifatini yaxshilashda markaziy o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu kasb nafaqat yordam ko'rsatish mexanizmi, balki jamiyatning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlovchi, inson huquqlari va adolat prinsiplariga asoslangan murakkab tizimdir. Ijtimoiy ishning samaradorligi milliy kontekst, huquqiy baza, mahalla instituti va kadr salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, har bir elementning o'zaro uyg'unligi xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mahalla institutlari ijtimoiy ishchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jamoaviy xizmatlarni muvofiqlashtirish va yordamga muhtoj shaxslarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kadr salohiyati, monitoring tizimining rivojlanishi va xizmat ko'rsatish standartlarining to'liq tatbiq etilishi ijtimoiy ishning samaradorligini yanada oshirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar, jamoat markazli yondashuv va profilaktik xizmatlar ijtimoiy ish tizimini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Bu esa yordamga muhtoj shaxslar uchun xizmatlarning tezkor, sifatli va individual ehtiyojlarga mos tarzda yetkazilishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va mahalla an'analarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijtimoiy ish — nafaqat texnik jarayon, balki shaxsga yo'naltirilgan,

jamoat bilan uyg'unlashgan va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydigan murakkab faoliyatdir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish kasbiy faoliyati — bu jamiyat va inson hayoti o'rtasidagi muhim ko'prikdir. U yordamga muhtoj shaxslarning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni oshirish va milliy qadriyatlar asosida xizmat ko'rsatishning barqaror tizimini yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ishning rivojlanishi nafaqat shaxsiy hayot sifatini oshirish, balki butun jamiyatning barkamolligiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, V. M. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti.. Toshkent: Fan, 2020.
2. Abdullaeva, N. Ijtimoiy ishning metodologik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" qonuni Toshkent, 2018.
4. Bronfenbrenner, Ecological Models of Human Development. International Encyclopedia of Education. Oxford: Elsevier., 2014.
5. Markaev, Z. Sociological Foundations of the Social Work's Institutionalization in Uzbekistan. Toshkent: Fan, 2019.
6. Muratjanova, L. Enhancing the Role of Social Protection in Uzbekistan. Toshkent: Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi, 2025.
7. Muratjanova, L. Modernization of Social Sphere in Uzbekistan. Toshkent: Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonun. Toshkent, 2020.
9. Rakhmonov, D.A., et al. Cultural Aspects of Social Services. Toshkent: Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi, 2025.
10. Safarov, R. Local Governance and Social Services Integration in Uzbekistan. Toshkent: Yangi Avlod, 2021.
11. UNDP Uzbekistan. Guide on Delivery of Social Services. Toshkent, 2021.
12. UNICEF. Social Work as a Driving Force in Solving Social Problems of Vulnerable Groups. New York, 2024.
13. World Bank. Uzbekistan to Improve Access and Quality of Social Services for Vulnerable People. Washington, 2024